

MTTLARDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASINI QO'LLASHNING ZAMONAVIY SHAKL VA METODLARI

Jizzax viloyati Zarbdor tumani

11-son DMTT direktor o'rinbosari

Norboyeva Nazokat Xudoyberdiyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini qo'llashning zamonaviy shakl va metodlari keng yoritilgan. Unda bolalarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda tarbiyaviy muhit yaratish, integratsiyalashgan mashg'ulotlar, ertak terapiyasi, sahnalashtirish, interfaol metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, MTT, uzluksiz ma'naviy tarbiya, konsepsiya, zamonaviy shakl va metodlar, interfaol usullar, tarbiyaviy muhit, ertak terapiyasi, sahnalashtirish, oila va MTT hamkorligi, milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya,

MODERN FORMS AND METHODS OF IMPLEMENTING THE CONCEPT OF CONTINUOUS SPIRITUAL EDUCATION IN EDUCATIONAL CENTERS

Abstract: This article broadly covers modern forms and methods of applying the concept of continuous spiritual education in preschool educational organizations. It analyzes the issues of creating an educational environment, integrated classes, fairy tale therapy, staging, interactive methods, and the effective use of information and communication technologies in the formation of spiritual and moral qualities in children.

Bugungi globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi hamda bolalarning ijtimoiy muhit bilan erta tanishishi maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) oldiga ma'naviy tarbiya masalasini yanada dolzarb vazifa sifatida qo'ymoqda. Chunki maktabgacha yosh — shaxs kamolotining poydevori bo'lib, aynan shu davrda bolada ezgulik, mehr-oqibat, halollik, odob-axloq, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik kabi qadriyatlar shakllana boshlaydi.

Shu bois MTTlarda uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini qo'llash, uni zamonaviy shakl va metodlar orqali amaliyotga joriy etish, tarbiyachi-pedagoglar hamda ota-onalarning hamkorligini mustahkamlash bugungi ta'lim jarayonining muhim yo'nalishiga aylanmoqda.

Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar

1. Har bir guruh uchun ma'naviy tarbiya reja-dasturi ishlab chiqish.
2. Tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasi va tarbiyaviy mahoratini oshirish.
3. Ota-onalar bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish.
4. Har haftada ma'naviy mavzuga oid mini-tadbirlar o'tkazish.
5. "Ertak, o'yin, suhbat, loyiha" metodlarini uyg'unlashtirish.
6. Bolalarda ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda namuna ko'rsatish usulini kuchaytirish.



Mamlakatimizda ayrim yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda. Albatta bu borada uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini maktabgacha ta'limni isloh qilishni taqozo qildi. Shu bilan birga maktabgacha ta'lim bilan xalq ta'limni integratsiya qilishni ham davrni o'zi talab qilmoqda.

Ma'naviy tarbiya sohasida maktabgacha ta'lim tarbiyachilari faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, ma'naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar yetarli emas.

Shu munosabat bilan «Uzluksiz ma'naviy tarbiya» konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ma'naviy tarbiya tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu borada uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyada belgilangan vazifalarni oila va uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirish quyidagilardan iborat:

- a) davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;
- b) ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;
- v) davlat boshqaruvi organlari, jamoatchilik tashkilotlari, mahalla va oila institutlari orqali joriy etiladi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasida maktabgacha ta'lim yoshidagilarni quyidagi bosqichlarni qamrab olinadi:

birinchi bosqich — oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr — homila davri, ikkinchi davr — bola tugʻilganidan 3 yoshgacha boʻlgan davr);

ikkinchi bosqich — maktabgacha taʼlim 3 — 6 (7) yoshgacha boʻlgan davr;

Vazirlar Mahkamasi — strategiyaning ijrosini taʼminlash, amalga oshirilishi lozim boʻlgan ishlarni nazorat qilib borish va moliyalashtirishga, mutasaddi vazirliklar, idoralar va hokimliklar — belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishga masʼul ekanligi konsepsiyada alohida koʻrsatib oʻtilgan.

Maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarni Oilalarda uzluksiz maʼnaviy tarbiya tizimi oʻz ichiga ikki davrni qamrab oladi bular quyidagilardan iborat:

a) birinchi davrda — hududlardagi oilaviy poliklinikalarda, mahallalardagi homilador ayollar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik, maʼnaviy-maʼrifiy, tibbiy, psixologik yordam ishlari tizimli tashkil qilinadi. Yosh ota-onalar bola parvarishi va tarbiyasiga tayyorlanadi;

b) ikkinchi davrda — bola tugʻilganidan 3 yoshgacha boʻlgan davr orasida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilinadi.

Uzluksiz maʼnaviy tarbiya — bu bolada maʼnaviy-axloqiy sifatlarni bir martalik tadbirlar orqali emas, balki bosqichma-bosqich, izchil, muntazam shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy tizimdir.

- bolada milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish;
- ijobiy xulq-atvorni rivojlantirish;
- ijtimoiy moslashuv, muloqot madaniyatini shakllantirish;
- Vatanga muhabbat, oila qadriyatlariga hurmat ruhini kuchaytirish;
- maʼnaviy immunitetni mustahkamlash.

Oilada 3 yoshgacha bolalarda badiiy-estetik didni shakllantirish va intellektni rivojlantirishga moʻljallangan alla, ertak, maqollar va topishmoqlarning audio shakli yaratilib, multfilmlar toʻplami tayyorlab, hududlarga tarqatilsa nur ustiga aʼlo nur boʻladi.

Bolalarga taklif etilayotgan oʻyinchoqlarni maʼnaviy tahlili va tadqiq qilish orqali bolalar ruhiyatiga salbiy taʼsirlarning oldi olinadi. Chunki aksar oʻyinchoqlar xorijiy davlatlarning bizning mentalitetimizga mutlaqo yot boʻlganlari kirib bolalarni tarbiya qilmoqda.

Bu borada oilada ota-onalarning farzand tarbiyalash metodlariga oid bilimlarini muntazam oshirib borish maqsadida quydagilarga alohida eʼtibor qaratish lozim:

bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagoglarning ilgʻor yutuqlaridan samarali foydalanish;

mahallalardagi «Ota-onalar universitetlari»da ota-onalar uchun farzandlarda yoshiga mos ijtimoiy kompetensiyalarni tarbiyalash boʻyicha treninglar oʻtkazish;

«Tarbiya maktabi» rukni ostida ota-onalar, pedagoglar uchun teleko'rsatuvlar, bolalar, yoshlar uchun turli rasmlar bilan bezatilgan yorqin, rang-barang qo'llanmalar, multimedia mahsulotlari kabi didaktik materiallar turkumini yaratish;



uzluksiz ma'naviy tarbiya amaliyotida to'plangan ijobiy tajribani ommalashtirish maqsadida «Yosh ota-ona kitobi» va boshqa metodik qo'llanmalar asosida multimediali taqdimotlar seriyasini yaratish va ota-onalarga tarqatish mexanizmi yo'lga qo'yiladi.

Oila bilan hamkorlikdagi tarbiya shakllari

Uzluksiz ma'naviy tarbiyaning eng muhim bo'g'ini — oila. Shuning uchun MTTlarda quyidagi shakllar samarali:

- “Ota-onalar universiteti”
- ma'naviy tarbiya bo'yicha maslahat soatlari
- “Oilaviy qadriyatlar kuni”
- ota-onalar bilan birgalikda kitob o'qish loyihalari
- uy sharoitida bajariladigan tarbiyaviy topshiriqlar

Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, oilaviy qadriyatlarimizga zid bo'lgan turli ma'naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish, hududlar bo'yicha oilalarda sog'lom tarbiyaviy muhitni yaratish va ota-onalarga tarbiya usullarini o'rgatishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ'ibot tadbirlari va treninglar o'tkazib borish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, MTTlarda uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini zamonaviy shakl va metodlar asosida amalga oshirish bolalarda sog'lom dunyoqarash, ijobiy xulq, insoniylik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan mashg'ulotlar, ertak terapiyasi, interfaol metodlar, oila bilan hamkorlik, AKTdan oqilona foydalanish kabi yondashuvlar ma'naviy tarbiya samaradorligini oshiradi. Eng muhimi, uzluksiz ma'naviy tarbiya bolani nafaqat bugungi kun uchun, balki kelajakda jamiyatga foydali, ma'rifatli va odobli shaxs bo'lib yetishishiga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” O'zbekiston. 2017
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 2019 yil 8 may PQ-4312 sonli qarori.

3. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'rsida"gi 1059-son qarori

